



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



### TURIZM TAKOMILLASHUVINING IJTIMOIIY HAYOTIMIZGA-INSON PSIXOLOGIYASIGA IJOBIY TA'SIRI SIFATIDA TUTGAN O'RNI.

**Dilrabo Samadova**

*PhD.Guliston Davlat Pedagogika Instituti.Guliston.*

**Mashhura Abduvaliyeva Abduvohid qizi**

*Guliston Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika-Psixologiya  
yo 'nalishi II bosqich magistranti.Gusliston.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada siz turizm takomillashuvida yurtimizning turli hududlarida amalga oshirilgan amaliy loyihalar haqida,shu bilan birgalikda sayohat,ekskursiyaning iqtisodiy hamda ijtimoiy psixologik jihatdan inson ongiga samarali ta'sir etuvchi vosita ekanligi,sayohatning pedagogik-psixologik ahamiyati haqida ko 'nikmalarga ega bo 'lasiz.*

**Kalitso'zlar:** *turizm,ekskursiya,qayta tarbiyalash,trening,korreksiya, integratsiya,xulqi og 'ishganlik,,yopiq maktab.*

### THE ROLE OF TOURISM IMPROVEMENT AS A POSITIVE EFFECT ON OUR SOCIAL LIFE - HUMAN PSYCHOLOGY

**Annotation:** *In this article, you will learn about the practical projects implemented in different regions of our country for the improvement of tourism, as well as the fact that travel, excursion is a tool that effectively affects the human mind from an economic and social psychological point of view, and the pedagogical and psychological importance of travel.*

**Keywords:** *tourism, excursion, re-education, training, correction, integration behavior change, closed school.*

### РОЛЬ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА КАК ПОЗИТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ НА НАШУ СОЦИАЛЬНУЮ ЖИЗНЬ – ПСИХОЛОГИЯ ЧЕЛОВЕКА

**Аннотация:** *В этой статье вы узнаете о практических проектах, реализуемых в разных регионах нашей страны по совершенствованию туризма, а также о том, что путешествия, экскурсии являются инструментом, эффективно воздействующим на сознание человека с экономической и социальной психологической точки зрения. точки зрения, а также педагогическое и психологическое значение путешествий.*





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



**Ключевые слова:** *туризм, экскурсия, перевоспитание, обучение, коррекция, интеграционное изменение поведения, закрытая школа*

O'zbekiston ming yillik boy tarixga shuning bilan birgalikda tobora chiroy ochib borayotgan mo'jaz go'shalar-u muqaddas qadamjolarga ega mamlakatdir. Ayni damda yurtimiz rivojlanayotgan davlatlar qatoridan joy olib o'zining yangi tarix zarvaraqlariga xalqimiz uchun unutilmas voqea va xodisalarni bitmoqda. Bunda yurtboshimiz ta'kidlagandek uchinchi renessans zamirida barcha uchun birdek manfaatli islohotlar olib borilmoqda. Yurtimizda mavjud o'n ikki viloyatning barchasi kundan kunga ko'rk ochib bormoqda. O'zbekiston rivojlanayotgan davlatlar qatorida o'zining murakkab strategic yo'lidan borayotganligi hech kimga sir emas, bu yo'lda yurtimizning iqtisodiy rivojlanishi uchun barcha hududiy imkoniyatlarimizdan foydalanish va imkoniyatlarimizni takomillashtirib rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish ko'zda tutilgan. Yurtboshimizning 2024-yil 28-yanvar kuni turizmni rivojlantirish, jismoniy tarbiya sportni yanada ommalashtirish masalalari bo'yicha yig'ilishi o'tkazildi. Prezidentimiz yig'ilishda so'zlagan nutqida hozirgi kunda jahon turizm bozori hajmi qariyb to'qqiz trillion dollarni tashkil etayotganini, dunyoda ish bilan band aholining har o'ninchisi ushbu sohada faoliyat yuritayotganini ta'kidladilar. Hozirgi kunga kelib O'zbekistonda aholi soni o'ttiz olti milliondan ziyod, ho'sh o'ttiz olti milliondan ziyod **xalqimizga turizm o'zining qanday ta'sirini ko'rsatadi?** Bu boradagi savollarga yechim topishda **turizmning insonga iqtisodiy hamda ijtimoiy va ma'naviy, psixologik ta'sirlarini** yoritishni talab etadi.

- Birinchidan, yurtimizning tarixiy ming yillik qadamjolari o'z husn-u ko'rki ila barchani maftun etish imkoniga ega. Buxoro-yu, ko'hna Samarqand, Xiva kabi tarixiy obidalarga boy maskanlarimiz hech kimni o'ziga rom etmay qo'ymaydi.

- Ikkinchidan yurtimizga tashrif buyurgan har bitta sayyoh va unga yuqori darajada xizmat ko'rsatish uchun barcha qulaylig-u sharoitlarimiz yetarli darajada taraqqiy etgan, bu esa iqtisodiy o'z natijasini beradi.

- Uchinchidan, bir yuzi o'ttizdan ziyod millat va elatlar bilan totuvlikda yashovchi bag'ri keng o'zbek xalqi uchun bu har tomonlama yangi va mustahkam hamkorlik loyihalarini amalga oshirishda yaqindan ko'maklashadi.

- To'rtinchidan, bizning yuksak did va mahorat ila qad rostlagan har bir inshoot-u, tabiat manzaralarimiz O'zbekiston davlati uning tarixi-yu buguni haqida boshqa davlat vakillariga so'zlarsiz ifodalovchi vositamizdir.

- Beshinchidan, inson zakovatining mahsuli bo'lmish texnika-texnologiyalar rivojlangan, shiddat bilan kechayotgan globallashuv davrida insonning psixologik holatiga ijobiy ta'sir etuvchi, uni kundalik yuklamalar-u yumushlarning hissiy toliqishlarini bartaraf etib, inson ruhiyatiga ko'z ilg'amas ammo jo'shqin ga'yrat va shijoatga undovchi sehrli kuch baxshida etadi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Yurtimizda mavjud o'n ikki viloyat va shaxar o'z imkoniyati darajasidan kelib chiqqan holda o'z turistik zonasiga ega. Hususan, bizning **Sirdaryo viloyatida ham yurtimizning turistik salohiyatini oshirish maqsadida bir qator amaliy ishlar va xalqaro miqyosdagi loyihalar amalga oshirilmoqda.** Shulardan, Respublikamizda 2023-yil 9-may sanasida uchinchi bor o'tkazilgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivali Sirdaryo viloyatining Guliston shahrida 3 kun davomida bo'lib o'tdi. Festivalda dunyoning turli davlatlaridan kelgan etnik yo'nalish ijrochilari ishtirok etishdi.

Yurtimizga oltin kuzning tashrifi biz sirdaryoliklarga har yili an'ana tarzida o'tkazildigan qovun saylini yetaklab keladi. Barchaga ma'lum Sirdaryo o'zining tilyorar darajadagi shirin tamli qovunlari bilan barchaga mashhur. Bu kabi sayllar esa ko'pgina boshqa viloyatlik hamyurtlarimizni ham o'ziga chorlaydi. Birgina bizning viloyatimizda emas balki boshqa viloyatlarimizda ham bu kabi loyihalar an'ana tarziga aylangan desak ham mubolag'a bo'lmas, misol uchun Namanganning "Gullar sayli", ko'hna Samarqand shaxrida "Sharq taronalari" festivallari buning yaqqol dalilidir. Menimcha yurtimizda har bir yuqori saviyada o'tkaziladigan festivallar va milliy bayramlarimiz o'zgacha atmosfera va inson psixologiyasiga beruvchi kuchli ta'siri bilan xorijlik birodarlarimizni o'ziga jalb eta oladi.

Turizm keng sarhadlidir, sayyohlar ham har xil yosh toifasiga mansub, bu omil ham bizning turistik rivojlanishimiz uchun inobatga olishimiz kerak bo'lgan, jihatlardan biri deb o'ylayman. Inson psixologiyasi bir muncha jiddiy va murakkabdir. Uning har bir yosh davriga xos xususiyatlari mavjud. Shuning bilan birgalikda olingan statistik ma'lumotlardan bizga shunisi ma'lumki, bir xil yumushlar va bir xil hayot tarzida yashovchi insonlarda stress yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'ladi. Turizm bu borada bizga o'zining ijobiy ta'sirini bera oladi deb o'ylayman. Ahir psixologiyada o'tkaziladigan turli treninglarning samarasi trening o'tkaziladigan muhit va atmosferaga ham bog'liqdir. Turizmni inson psixologiyasiga ijobiy ta'sir kuchiga to'xtalib o'tmoqchiman. Avvalo sayohat insonning bilish sohasi va undagi bilish jarayonlarining taraqqiy etishiga yordam beradi deb o'ylayman, chunki inson borliqdagi jamiki mavjudliklarni nigohi ila ko'rib, his qilgisi keladi va buning natijasida bizning idrokimizda yaxlit bir tushuncha shakllanadi. Turli davlatlar va ularda istiqomat qiluvchi aholining yashash tarzi, qadriyatlar, muqaddas va mo'jaz qadamjolari bilan yaqindan tanishish insonni tasavvur olamini kengaytiradi, qolaversa yangi kreativ g'oyalar yuzaga kelishiga ham turtki bo'ladi deb o'ylayman.

Biz agarda inson psixologiyasiga samarali ta'sir etishda sayohat, ekskursiyalardan foydalanmoqchi bo'lsak, ya'ni sayohat va ekskursiyani ta'sir etuvchi vosita sifatida qo'llamoqchi bo'lsak bir qator jihatlar e'tibor qaratishimiz kerak deb o'ylayman. Misol uchun insonning bilimlar, bilish darajasi, diniy qarashlari, o'yin-kulgi, dunyoqarashini kengaytirishi kabi jihatlar shular sirasidandir.

Yurtimizda hozirda yosh avlod ongiga ilm nurlarini mustahkam mujassamlashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Albatta bu ishlar zamirida yosh avlodni maqsadli ta'lim olishi ko'zda tutilgan. Misol uchun Respublika tashxis markazining





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



umumta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida o'quv yilining har bir oyida sinflar kesimida turli tashkilot, muassasalarga sayohatlar uyushtirish belgilangan. Buning natijasida o'quvchi yoshlar tasavvur olami kengayadi, hamda ma'lum kasb yoki hunar to'g'risida to'laqonli ma'lumot olishlari uchun zamin yaratadi va kasbiy savodxonliklarini oshiradi. Shu o'rinda biz umumta'lim maktablarida taxsil olayotgan psixologik holati me'yor darajadagi o'quvchilar-o'smir yoshlar uchun davlatimizda yo'lga qo'yilgan sayohat dasturini tilga oldik, ammo shunday bir o'quvchilar qatlami borki jamiyatdan tarbiyasi og'irligi sabab ta'limni yopiq maktablarda olishga hukm qilingan, sezgan bo'lsangiz kerak, bu balog'atga yetmagan ya'ni o'n to'rt yoshga to'lgan ammo o'n sakkiz yoshdan oshmagan voyaga yetmaganlar uchun maxsus ixtisoslashtirilgan yopiq maktablardir. To'g'ri voyaga yetmaganlar maktabi maxsus ixtisoslashtirilgan hamda qonun asosida tasdiqlangan yopiq ta'lim muassasasidir. Meni bir narsa o'ylantiradi yopiq maktablarda ta'lim olishga hukm qilingan har bir voyaga yetmagan o'smir u yerga o'z hohishi va psixologik nuqtai nazardan faqatgina o'zining qilmishi bilan hukm qilinarмикin? Ahir barcha dastlabki tushunchalar oiladan farzand ongiga singdiriladiku, yopiq maktablarga hukm qilingan bolalar noto'g'ri tarbiyaning yoki mehirsiz, be e'tibor ota-onalarning qurboni emasmik. So'z o'rnida bir naqlda vujudida olti oylik homilasi bor ayolning donishmanddan farzand tarbiyasini qachondan boshlashi joizligini so'raganda donishmand "bo'lajak" onaga olti oyga kechikkanligini takidlagandi. To'g'ri hech bir ota-ona tarbiya berayotganda farzandining nopok yo'llardan yurishini istab tarbiya bermaydi, ammo tarbiyalashdek mashaqqatli va murakkab jarayonda yo'lga qo'yilgan arzimas bir xato farzand kelajagiga rahna solishi mumkin. Psixologik jihatdan "Korreksiyalash"- "Qayta tuzatish", pedagogik jihatdan esa qayta tarbiyalash nihoyatda mushkul jarayondir. Bu jarayonda malakali pedagoglar, psixologlar turli usullar va individual yondashuvni amalga oshiradilar. Mavzudan yiroqlashmagan holda turizmning ijobiy ta'siridan yosh avlodni barqaror psixologik holatga keltirishdagi vazifasi ham o'ziga yarasha ma'no kasb etadi. Mening fikrim shundan iboratki yopiq maktablarga hukm qilingan o'smirlarda barcha amaliy ishlar, mashg'ulotlar maktab hududidan chiqmagan holda olib borishni talab etadi va tarbiyalanuvchilar bilan amalga oshirilishi lozim bo'lgan barcha amaliy jarayonlar hukumat qarori asosida o'z tasdig'ini topadi. Eng asosiysi esa yopiq maktabdan so'ng ijtimoiy hayotga ochiqlik va erkin hayotga qo'yib yuborilgan, integratsiyalashtirilgan inson ruhiyati me'yoriy psixologik moslashuvda qiyinchiliklarga, ziddiyatlarga duch kelmaydimi? Inson o'zidagi illatlarni fazilatlariga aylantirishi uchun faqatgina belgilangan muddatgina o'z ustida shug'ullanishi, ishlashi kerakмикin? Axir bu ichki kurash uzoq vaqt talab etadiku. Mana shunday vaziyatlarda sayohatning va undan olingan ta'assurotning o'ri ahamiyatlidir. Keling turizmni faqat iqtisodiy emas balki ijtimoiy psixologik insonga ozuqa berishini ham inobatga olaylik. Bu bilan biz turizm takomillashuvining nafaqat iqtisodiy hayotimizga balki ijtimoiy psixologik, ma'naviy hayotimizga ham ijobiy ta'sirini ifodalagan bo'lamiz. Turizm so'zi iqtisodiy farovonlik ildizlaridan biri sifatida e'tirof etilsa, psixologik



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



nuqtai nazardan turizm-inson tafakkuri takomillashuvining ozuqaviy kuchlaridan biridir desak haqiqatga yaqinroq bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mirziyoyev.SH.M-"Yoshlar siyosatini takomillashtirish, turizm, sportni ommaslashtirish masalalari hususidagi yig'ilishdagi nutqi.-Toshkent. 28-yanvar.2024-yil
- 2Kamolova.A.O. Husaynova.S.I-"O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos hususiyatlari.Science and Education,969-972.2023
- 3.Zmanovskaya.E.V."Deviantologiya:Psixologiya,otklonyayushegovsaya povedeniya:Ucheb posobie dlya stud.vissh.ucheb.zavedeniya."-Maskva 2003.288-297 s.

